NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI

Q A R O R I

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2022 - yil 3 - oktabr 150-5-74-Q/22 Nurota tumani hokimligi

Nurota tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga svetoforlarni o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 15-son, 197-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022 y., 09/22/172/0298-son, 21.07.2022 y., 09/22/393/0654-son) ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Nurota tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetoforlar o‘rnatilsin.

2. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK (R.Norboboyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (R.Saidov)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetaforlarni o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXG (O.Safarov)ga mazkur svetoforlar o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Nurnoma” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Rustamov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Fayziyev**

Nurota tuman hokimining
2022 yil 3 oktabrdagi
150-5-74-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud avtobil yo‘llarga o‘rnatiladigan svetofor bo‘yicha

MA’LUMOT

T/r	**Ko‘cha nomi**	**Joylashtirish joyi**	**Soni**
1	57,5 km PK	4R57 Qizilqum halqa yo‘li (Karmana sh.-Nurota sh.-Boymurot q.-O‘tamurot q.-Mullali q.-Tomdibuloq q.) 57,5km PK	5
2	58 km PK9	4R57 Qizilqum halqa yo‘li (Karmana sh.-Nurota sh.-Boymurot q.-O‘tamurot q.-Mullali q.-Tomdibuloq q.) 58kmPK9	10
3	122 km PK4	4R55 Mitan q.-Qo‘shrobot q.-Nurota sh. 122kmPK4	9
4	122 km PK9	4R55 Mitan q.-Qo‘shrobot q.-Nurota sh. 122kmPK9	7
5	124 km PK2	4R55 Mitan q.-Qo‘shrobot q.-Nurota sh. 124kmPK2	9